Abstract: The investment activities of insurance organizations are of great importance in the conditions of modern financial markets, especially the processes related to the concept of green financing based on environmental, social and governance (ESG) criteria are growing. This study examines the role of ESG factors in the investment portfolios of insurance companies and their impact on financial results using econometric models. Using econometric approaches, the impact of investments on profitability, risk level and long-term sustainability, as well as the impact of green investments on the financial performance of insurance companies, is analyzed. The modeling process takes into account indicators such as companies' ESG ratings, investment volume, income indicators and market conditions. The results of the study indicate that insurance organizations should take into account ESG criteria and increase their focus on green financing when formulating investment strategies. At the same time, the use of econometric models creates a scientific basis for improving the efficiency of investment decisions. This work will serve to further develop investment approaches aimed at sustainable development of the insurance sector and increasing social responsibility.

Keywords: insurance organizations, investment activities, ESG criteria, green financing, econometric model.

Аннотация: Инвестиционная деятельность страховых организаций приобретает большое значение в условиях современных финансовых рынков, особенно в условиях роста процессов, связанных с концепцией «зеленого» финансирования, основанного на экологических, социальных и управлеченческих (ESG) критериях. В данном исследовании рассматривается роль ESG-факторов в инвестиционных портфелях страховых компаний и их влияние на финансовые результаты с использованием эконометрических моделей. С использованием эконометрических подходов анализируется влияние инвестиций на рентабельность, уровень риска и долгосрочную устойчивость, а также влияние «зеленых» инвестиций на финансовые показатели страховых компаний. В процессе моделирования учитываются такие показатели, как ESG-рейтинги компаний, объем инвестиций, показатели дохода и рыночная конъюнктура. Результаты исследования свидетельствуют о том, что страховым организациям следует учитывать ESG-критерии и усиливать акцент на «зеленом» финансировании при формировании инвестиционных стратегий. При этом использование эконометрических моделей создает научную основу для повышения эффективности принятия инвестиционных решений. Данная работа будет способствовать дальнейшему развитию инвестиционных подходов, направленных на устойчивое развитие страхового сектора и повышение социальной ответственности.

Ключевые слова: страховые организации, инвестиционная деятельность, ESG-критерии, «зеленое» финансирование, эконометрическая модель.



KIRISH

So'nggi yillarda global moliya bozorlari va iqtisodiyotda barqaror rivojlanish tamoyillari asosida investitsiya faoliyatini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) mezonlariga asoslangan yashil moliyalashtirish kontseptsiyasi sug'urta tashkilotlari kabi institutsional investorlar uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmaqda. Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatida katta miqdordagi kapitalni boshqaradi va shu sababli ularning investitsiya qarorlari bozorlar barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ESG mezonlari va yashil moliyalashtirish tamoyillarining sug'urta sohasidagi investitsiya faoliyatiga ta'sirini chuqur o'rganish zarur.

O'zbekiston sug'urta bozorida investitsiya portfellarini optimallashtirish jarayonida ESG-standartlari va "yashil moliya" konsepsiyaning integratsiyalashning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan. Sug'urta kompaniyalari soni, yig'ilgan sug'urta mukofotlari, to'langan sug'urta qoplamlari, jami ustav kapitali, sug'urta mukofotlarining YalMdagi ulushi, investitsiya hajmi hamda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi kabi asosiy ko'rsatkichlar 2015–2024 yillar davri uchun statistik jihatdan tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston sug'urta bozorida investitsiya hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Asosiy ko'rsatkich sifatida sug'urta kompaniyalarining investitsiya hajmi tanlandi. Shu bilan birga, uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator iqtisodiy omillar o'rganildi.

Birinchidan, sug'urta kompaniyalari sonining ortishi bozor raqobatini kuchaytirib, investitsion faoliyatning kengayishiga xizmat qilishi kutiladi. Ikkinchidan, sug'urta mukofotlari hajmi kompaniyalarining asosiy moliyaviy manbasi bo'lib, ularning ko'payishi investitsiya hajmining oshishiga bevosita olib keladi. Uchinchidan, sug'urta qoplamlarining ko'payishi aksincha, investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'larning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, jami ustav kapitalining yirikligi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va investitsiya salohiyatini kuchaytiradi. Sug'urta mukofotlarining YalMdagi ulushi esa butun sektorning iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsatib, investitsiya hajmiga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, Markaziy bankning asosiy stavkasi ham muhim omil bo'lib, stavkaning yuqoriligi real sektordagi investitsion faollikni cheklashi, pasayishi esa rag'batlantirishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekonometrik tahlil STATA 17 dasturida amalga oshirilib, yuqoridagi omillarning investitsiya hajmiga ta'siri regressiya modellari yordamida baholandi. Olingan natijalar sug'urta mukofotlari va ustav kapitalining investitsiya hajmini oshiruvchi, sug'urta qoplamlari va asosiy stavkaning esa kamaytiruvchi omil ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari sug'urta sektorida "yashil moliya" konsepsiyanini joriy etish hamda ESG-standartlarini integratsiyalash orqali investitsion faoliyatni yanada samarali yo'naltirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot davomida 2015-2024-yillarga oid iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida ekonometrik model qurildi va ko'rsatkichlarning turli makroiqtisodiy omillarga ta'siri baholandi. Xususan, "Sug'urta kompaniyalarining investitsiya xajmi", "Sug'ura mukofotlari", "Sug'urta qoplamlari", "Jami ustav kapital", "Sug'urta mukofotlarning YalM ulushi", "Asosiy stavka" kabi ko'rsatkichlar to'plandi.

1-jadval. Ma'lumotlarning tavsifiy statistikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
kompaniyasoni	40	33.95	5.496	24	42
Sug'uramuko~m	40	2407.143	2536.411	189	9770.1
Sug'urtaqop~m	40	659.038	689.069	24.2	2596.9
Jamiustavk~m	40	1261.46	877.36	321.6	2963.6
Sug'urtamuk~i	40	.443	.183	.2	.76
Sug'urtakom~i	40	2124.95	1758.524	275.3	6542.5
Asosiystav~i	40	13.275	2.648	9	17

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan har bir omil bo'yicha kuzatuvlari soni, o'tacha qiymati (mean), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) ni ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (Standart Deviation - standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o'zgaruvchilarning o'tacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.



40 ta kuzatuv asosida olingen statistik ko'rsatkichlar O'zbekiston sug'urta bozorining dinamikasini ifodalaydi. Umumiy ko'rinishda eng katta o'tacha qiymat sug'urta mukofotlarda kuzatilib, u 2407,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 189 mlrd so'mdan 9770,1 mlrd so'mgacha keng diapazonda tebranib, sektorda mukofotlar hajmining keskin oshganini bildiradi. Sug'urta kompaniyalarining investitsiya hajmi ham yirik qiymatga ega bo'lib, o'tacha 2124,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Uning eng past darajasi 275,3 mlrd so'm, eng yuqori darajasi esa 6542,5 mlrd so'm bo'lib, investitsiya faoliyatida katta tafovut mavjudligi namoyon bo'ladi.

Sug'urta qoplamlari o'tacha 659 mlrd so'mni tashkil qilib, 24,2 mlrd so'mdan 2596,9 mlrd so'mgacha keng oraliqda o'zgaradi. Bu ko'rsatkichning yuqori dispersiyasi sug'urta bozorida risklarni qoplash hajmi yildan-yilga farq qilganini ko'rsatadi. Jami ustav kapitali o'tacha 1261,4 mlrd so'm bo'lib, eng kamida 321,6 mlrd so'm, eng ko'pida esa 2963,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa kompaniyalar moliyaviy salohiyatining turlicha darajada ekanini anglatadi.

Sug'urta mukofotlarining YalMdagi ulushi o'tacha 0,44 foiz atrofida bo'lib, 0,2 foizdan 0,76 foizgacha o'zgaradi. Bu raqamlar sug'urta sektori hajmining iqtisodiyotdagi umumiyligi ulushi oshib borayotganini, ammo hanuz past darajada ekanini ko'rsatadi. Asosiy stavka esa 9 foizdan 17 foizgacha bo'lgan diapazonda tebrangan va o'tacha 13,27 foizni tashkil etgan. Bu sug'urta kompaniyalarining investitsiya qarorlariga bevosita ta'sir etuvchi muhim makroiqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kompaniyalar soni nisbatan barqaror bo'lib, o'tacha 34 ta, minimum 24 ta va maksimum 42 ta kompaniya faoliyat ko'rsatgan. Bu ko'rsatkich bozor strukturasi keskin o'zgarishsiz, ammo ma'lum o'sish tendensiyasiga ega ekanini bildiradi.

Umuman olganda, statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, sug'urta mukofotlari, qoplamlar va investitsiya hajmlarida yuqori tarqoqlik mavjud bo'lib, bu bozorning kengayish jarayonida ekanidan dalolat beradi. Asosiy stavkaning barqaror, kompaniyalar sonining esa tor diapazonda o'zgarishi sektordagi strukturaviy barqarorlikni ifodalaydi. Shu bilan birga, sug'urta mukofotlarining YalMdagi ulushi iqtisodiyotga nisbatan sektorga xos salmoqning asta-sekin ortib borayotganini, biroq hanuz yetarli darajada yuqori emasligini ko'rsatadi.

Ba'zilar statistik ma'lumotlarning to'liq emasligi ushbu o'zgaruvchilarning tahlildagi ishonchligini kamaytiradi deb baholaydi. Biroq, STATA 17 yordamida missing data strategiyalari (masalan, multiple imputation yoki log-linear regressiyalar) yordamida bunday cheklowlarni bartaraf qilish mumkin.

Yuqoridagi omillar orqali sifatli model tuzishga harakat qilamiz. Buning uchun "Eng kichik kvadratlar usuli"ning farazlarini tekshirishdan boshlaymiz.

Dastlabki faraz parametrlar chiziqli hamda kuzatuvlar soni belgilar sonidan kamida 6 marta ko'p bo'lishi kerak. Bizda belgilar soni 6 ta, kuzatuvlar soni esa 40 tani tashkil etmoqda. Ya'ni shart bajarildi deyishimiz mumkin.

Navbatdagi faraz, omil belgilar o'tasida multikolleniarlik bo'imasligi shart. Buni tekshirishning bir necha xil usullari mavjud, Ulardan biri korreletsion tahlil hisoblanadi. Buni tekshirish uchun korreletsion tahlilni keltirib o'tamiz:

2-jadval. Ko'rsatkichlar korreletsiya jadvali

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)
(1) Inkompaniya~i	1.000						
(2) InSug'uramu~m	0.654	1.000					
(3) InSug'urtaq~m	0.672	0.948	1.000				
(4) InJamiusta~m	0.845	0.828	0.775	1.000			
(5) InSug'urtam~i	0.745	0.911	0.876	0.922	1.000		
(6) InSug'urtak~i	0.641	0.970	0.957	0.787	0.857	1.000	
(7) InAsosiyst~i	0.581	0.625	0.747	0.581	0.692	0.644	1.000

Yuqoridagi jadval sug'urta bozoriga oid asosiy ko'rsatkichlarning korrelyatsiya matritsasini ifodalaydi. Barcha ko'rsatkichlar logarifmik shaklda olingani sababli, ular orasidagi o'zaro bog'liqlik yanada aniq ko'rindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, investitsiya hajmi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar o'tasida kuchli ijobjiy korrelyatsiya mavjud.


Birinchidan, sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamlari o'tasidagi bog'liqlik 0,948 ga teng bo'lib, juda yuqori darajada ekan kuzatiladi. Bu sug'urta mukofotlari oshgani sari qoplamlar hajmi ham ortishini bildiradi. Shu bilan birga, sug'urta mukofotlari bilan investitsiya hajmi o'tasidagi korrelyatsiya 0,911 bo'lib, mukofot tushumlari sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatini belgilovchi muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, ustav kapitali investitsiya hajmi bilan 0,922 darajada kuchli bog'liq. Bu kompaniyalar moliyaviy asosining mustahkamligi investitsion faoliyatning kengayishiga bevosita ta'sir etishini ko'rsatadi. Ustav kapitali bilan sug'urta mukofotlari (0,828) va qoplamlari (0,775) o'rtaCIDagi yuqori bog'liqlik ham shu tendensiyani mustahkamlaydi.

Uchinchidan, sug'urta qoplamlari bilan investitsiya hajmi o'rtaCIDagi korrelyatsiya 0,876 ga teng bo'lib, kompaniyalar risklarni qoplash bo'yicha majburiyatlarini bajarishi investitsiya imkoniyatlari bilan uyg'unlashganini bildiradi.

To'rtinchidan, asosiy stavka barcha ko'rsatkichlar bilan ijobiy bog'liq bo'lsa-da, ularning darajasi nisbatan pastroq. Masalan, asosiy stavkaning investitsiya hajmi bilan bog'liqligi 0,692 bo'lib, foiz stavkalari investitsion qarolarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Shu bilan birga, asosiy stavkaning sug'urta qoplamlari bilan bog'liqligi (0,747) ham yuqori darajaga yaqin. Bu esa foiz stavkalari oshganda sug'urta kompaniyalarining qoplamlari va moliyaviy majburiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, korrelyatsion tahlil sug'urta sektori ko'rsatkichlarining bir-biri bilan uzviy bog'langanini ko'rsatadi. Eng kuchli bog'liqlik sug'urta mukofotlari, qoplamlar, ustav kapitali va investitsiya hajmi o'rtaCIDida kuzatilib, bu moliyaviy ko'rsatkichlarning sektordagi investitsion faoliyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Asosiy stavka bilan bog'lanish esa o'rtacha darajada bo'lib, u ko'proq umumiyy makroiqtisodiy sharoitni belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Qoldiqlarning normal taqsimot funksiyalari grafigi

Multikolleniarlikka tekshirishning eng ishonchli usuli bu – VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffitsiyentlarini hisoblashdir.

$$VIF = \frac{1}{1 - r}$$

Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffitsiyentlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Variance Inflation Factors koeffitsiyentlar jadvali

	VIF	1/VIF
InSug'uramu~m	1.963	.509
InSug'urtam~i	1.934	.517
InJamiusta~m	1.297	.771
InSug'urtaq~m	1.203	.831
Inkompaniya~i	1.305	.766
Mean VIF	1.54	.

Agar ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lisa, u holda Centered VIF>10 bo'ladi. Jadvaldan ko'rish mumkinki, ta'sir etuvchi omillarning VIF koeffitsiyentlari o'ttachasi 10 dan kichik. Demak, bu omillar o'rtasidagi ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligini ko'rsatmoqda.


Navbatdagi faraz, ya'ni qoldiqlar normal taqsimlangan bo'lishi kerak.

4-jadval. Qoldiqlar normal taqsimoti testi

Variables	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max	p1	p99	Skew.	Kurt.
res	40	0	.174	-.551	.312	-.551	.312	-.765	4.111

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Skewness – asimmetriya koeffitsienti bo'lib, u nolga qancha yaqin bo'lisa o'zgaruvchi normal taqsimlangan ekanligini bildiradi. Agar bu koeffitsient 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya'ni, simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsienti 0 dan katta, ya'ni musbat bo'lisa, u holda o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. O dan kichik, ya'ni manfiy bo'lisa, u o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi. Kurtoz koeffitsienti (balandligi yoki tekisligining normal taqsimot) uchun ideal qiymat 3 ga teng. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, hozirgi holatda skewness taxminan -0,765 va kurtoz taxminan 4,111 ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Skewness qiymati qoldiqlarning manfiy og'ishga ega ekanini bildiradi. Demak, taqsimotning dum qismi chap tomonga cho'zilgan, ya'ni model ayrim kuzatuvlar bo'yicha biroz ortiqcha prognoz bergen. Kurtosis qiymati normal taqsimotdan yuqori. Bu qoldiq taqsimotida biroz "cho'qqilik" mavjudligini, ya'ni qoldiqlar ko'proq markazda jamlangan, lekin ba'zi og'ir dum qiymatlari ham borligini ko'rsatadi. Qoldiqning o'rttachasi 0 ga teng, bu model to'g'ri qurilganini va prognoz xatolarining musbat hamda manfiylari bir-birini qoplaganini bildiradi.

Standart og'ish 0,174 qiymat model xatolarining o'rtacha tarqalishini ko'rsatadi. Nisbatan kichik standart og'ish model barqarorligini bildiradi, ya'ni qoldiqlar katta tebranishlarga ega emas. Qoldiqlar -0,551 dan +0,312 gacha bo'lgan diapazonda. Bu chegaralar juda katta emas va modelda ekstremal og'ishlar kuzatilmaganini ko'rsatadi.



2-rasm. Qoldiqlarning normal taqsimot funksiyalari grafigi



Ushbu surilishlar asosan o'rganilayotgan davrda Sug'urta kompaniyalarining investitsiya hajmi ko'rsatkichi bo'yicha turli joylardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ayrim vaqtarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmasligi. Umuman olganda o'rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan.

Navbatdagi faraz, geteroskadastiklik sharti, ya'ni qoldiqlar omil belgilari bilan bog'lanmagan bo'lishi shart: Agar geteroskadastiklik mavjud bo'lsa, taxmin qilingan t qiyatlari ishonchli bo'lmasligi mumkin.

5-jadval. Geteroskadastiklik testi

Cameron & Trivedi's decomposition of

IM-test chi2	df	p
16.240	20	0.701
4.320	5	0.504
0.810	1	0.368
21.370	26	0.722

IM-test natijalariga ko'ra, qurilgan regressiya modelining qoldiqlari statistik jihatdan barqaror va normal taqsimotga yaqin ekanligi tasdiqlandi. Xususan, heteroskedastiklik testi $\chi^2 = 16.24$, df = 20, p = 0.7014 natija bergen bo'lib, p-qiyamatning 0.05 dan katta chiqishi qoldiqlarda heteroskedastiklik mavjud emasligini, ularning dispersiyasi barqaror ekanini ko'rsatadi. Skewness testi $\chi^2 = 4.32$, df = 5, p = 0.5041 qiyatni qayd etdi va bu qoldiqlar taqsimotida og'ish muammosi yo'qligini anglatadi. Kurtosis testi $\chi^2 = 0.81$, df = 1, p = 0.3683 natijani berdi, bu esa qoldiqlar cho'qqiligi normal taqsimotdan farq qilmasligini ko'rsatadi. Yakuniy umumiy test $\chi^2 = 21.37$, df = 26, p = 0.7224 ko'rsatkichiga ega bo'lib, p-qiyamatning 0.05 dan katta chiqishi model qoldiqlarining umumiy holda normal taqsimotga yaqin va yaxshi statistik xususiyatlarga ekanini bildiradi. Shu bois, tanlangan model natijalari ishonchli hisoblanadi va keyingi tahlillar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, xatoliklar bir biri bilan o'zaro bog'lanmagan bo'lishi kerak, ya'ni avtokorrelatsiya bo'lmasligi kerak. Buni tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Hisoblangan DW qiyati jadvaldagi DW_L va DW_U bilan taqqoslanadi. Agar $DW_{hisob} < DW_L$ dan kichik bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. $DW_{hisob} > DW_U$ dan katta bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiyati $DW_L = 1,07$ ga teng va yuqori chegarasi qiyati $DW_U = 1,83$ ga teng. Darbin-Uotson (DW) hisoblangan qiyat 2,78 ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DW_U$ bo'lgani uchun natijaviy omil (Y) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas degan xulosaga kelamiz.

Oltinchi faraz: Modelda o'tkazib yuborilgan kuzatuvlar bo'lmasligi kerak. Hamda empirik ma'lumotlar yig'indisi nazariy ma'lumotlar yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

6-jadval. O'tkazib yuborilgan kuzatuvlarni aniqlash testi

Source	SS	df	MS	Number	of	obs	=	40
Model	30.543	2	15.272	Prob >	F =		=	0.000
Residual	1.139	37	0.031	R-squared			=	0.964
Total	31.682	39	0.812	Root	MSE		=	0.175
InSug'urtak~i	Coeficient	Std. err.	t	P>t	[95%]	conf.		
_hat	1.638	0.529	3.100	0.004	0.566	2.711		
_hatsq	-0.044	0.036	-1.210	0.235	-0.117	0.030		
_cons	-2.300	1.918	-1.200	0.238	-6.186	1.585		

Linktest natijalariga ko'ra, qurilgan regressiya modelining umumiy statistik ahamiyati yuqori bo'lib, Prob > F = 0.0000 qiymati modelning muhimligini tasdiqlaydi. R-squared = 0.9640 va Adjusted R-squared = 0.9621 ko'rsatkichlari model natijaviy o'zgaruvchini yuqori darajada tushuntirib berishini ko'rsatadi. Test natijalarida prognozlangan qiyatni ifodalovchi _hat koeffitsienti sezilarli bo'lib (p = 0.004 < 0.05), bu modelning to'g'ri



spesifikatsiya qilinganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kvadrat qismni ifodalovchi $_hatsq$ koeffitsienti ahamiyatli emas ($p = 0.235 > 0.05$), bu esa modelda tashlab ketilgan muhim o'zgaruvchilar yoki noto'g'ri funksional shakl mavjud emasligini bildiradi. Umuman olganda, Linktest natijalari qurilgan regressiya modeli to'g'ri spesifikatsiya qilinganini va ilmiy talqin uchun ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Demak, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari ishonchli va yuqori bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Ushbu ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \varepsilon$$

bu yerda:

y – natijaviy omil, X_i – ta'sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi noma'lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4, \beta_5$, parametrлarning qiymatlarini aniqlashda "Eng kichik kvadratlар usuli" dan foydalandik. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

7-jadval. Ko'rsatkichlar regression tahlili

InSug'urtakompaniyalarininginve~i	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Inkompaniyasoni	.762	.375	-0.47	.038	.94	.584	**
InSug'uramukofotlarimldso'm	.606	.109	5.57	0	.385	.827	***
InSug'urtaqoplamarimldso'm	.322	.085	3.80	.001	.15	.494	***
InJamiustavkapitalmlrdso'm	.194	.138	1.41	.167	-.085	.474	
InSug'urtamukofotlarningYalMulushi	-.691	.258	-2.67	.011	-1.216	-.166	**
Constant	-.313	1.305	-0.24	.812	-2.965	2.34	
Mean dependent var	7.300			SD dependent var	0.901		
R-squared	0.963			Number of obs	40		
F-test	175.128			Prob > F	0.000		
Akaike crit. (AIC)	-15.277			Bayesian crit. (BIC)	-5.144		

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Sug'urta kompaniyalarining investitsiya hajmi (mlrd. so'm) ko'rsatkichi (Y) bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda quyidagicha ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = 0.762X_1 + 0.606X_2 + 0.322X_3 - 0.194X_4 - 0.691X_5 - 0.313$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadi, Boshqa o'zgaruvchilar o'zgarmagan sharoitda, "Kompaniya soni" (Inkompaniyasoni) (X_1) o'rtacha bir foizga ortsa, Sug'urta kompaniyalarining investitsiya hajmi (Y) o'rtacha 0,762 foizga ortishiga sabab bo'lar ekan degan xulosaga kelishimiz mumkin. P-qiyomi 0.038 ga teng va bu qiyomat $\alpha = 0,05$ ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatli. Shuningdek, "Sug'urta mukofotlari" (InSug'uramukofotlarimldso'm) natijaviy omilga ta'siri ijobji va statistik ahamiyatga ega (coef = 0.606, p = 0.000). Mukofotlar 1% oshganda investitsiya hajmi o'rtacha 0.61% ga ko'payishi kutiladi.

Nisbatan pastroq ta'sir sug'urta qoplamarida qayd etildi: InSug'urtaqoplamarini koeffitsiyenti 0.322 ($p=0.001$) qoplamar 1% oshsa, investitsiyalar qariyb 0.32% ga ortadi. Bu ikki ko'rsatkichning sezilarli va ijobji ta'siri sektordagi pul oqimlari kengayishi bilan investitsion faoliyatning ham birga kuchayishini anglatadi.

Jami ustav kapitalining koeffitsiyenti ijobji bo'lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli emas (0.194; p=0.167). Bu kapital bazasi kattalashuvi investitsiyaga yo'naliш bo'yicha muqarrar ta'sir ko'rsatmasligi, ehtimol kapitalning bir qismi operatsion ehtiyojlar yoki regulator talablarini qoplashga sarflanishi mumkinligini ko'rsatadi. Konstant a'zo ham ahamiyatli emas, bu esa asosiy dinamikani mustaqil o'zgaruvchilar yaxshi ushlaganini bildiradi.

Ln Sug'urta mukofotlarning YalM ulushi-0.691 ($p=0.011$). Demak, mukofotlarning YalMdagi ulushi 1% ga oshganda, boshqa sharoitlar teng bo'lganda, investitsiya hajmi o'rtacha 0.69% ga kamayadi. Bu ko'rsatkich sektordagi nisbiy "ulush" kengayishi investitsiya hajmini avtomatik ravishda oshirmasligini, balki bozor sikllari yoki resurslarni boshqa yo'naliшlarga qayta taqsimlash ta'siri bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti 0,96 ga teng. Bu esa Sug'urta kompaniyalarining



investitsiya hajmi (Y) 96,3 foizi hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omildan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 3,7 foizi (100,0-96,3) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

Root MSE = 0.1866, bu esa modeldag'i o'rtacha xatolik kichikligini bildiradi. Bularning barchasi modelning ishonchli va aniqligini ko'rsatadi. Modelning yuqori izohlash kuchi ($R^2=0.963$), kuchli umumiy ahamiyati ($Prob > F=0.000$), hamda past AIC/BIC ko'rsatkichlari natijalar ishonchliligini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatida ESG mezonlari va yashil moliyalashtirishning ahamiyatini ekonometriy usullar orqali tahlil qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ESG omillarini hisobga olgan investitsiya strategiyalari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ekonometriy modellarning qo'llanilishi investitsiya portfellari rentabelli, risklarni boshqarish va bozor sharoitlariga moslashish imkoniyatlarini aniqroq baholashga imkon yaratadi.

Shuningdek, yashil moliyalashtirish sug'urta sektorida ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va atrof-muhitga zarar keltirmaslik yo'lida samarali vosita sifatida ko'rilmoxda. Sug'urta kompaniyalari ESG yondashuvlarini faol joriy etish orqali nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy va ekologik xavfsizlikka ham hissa qo'shadi. Shu bois, sug'urta tashkilotlari uchun investitsiya strategiyalarini shakllantirishda ESG mezonlari va yashil moliyalashtirishni yanada chuqurroq o'rganish va joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu sohada yanada keng qamrovli ekonometriy tadqiqotlar o'tkazish sug'urta sektorining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishga xizmat qilishda muhim rol o'yнaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sangyong Hana, Gene C. Lai, Chia-Ling Hoc. Corpore transparency and reserve management: Evidence from US property-liability insurance companies. Journal of Banking and Finance 96 (2018) 379-392 p.
2. Zayniddinov R.X. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabroktiyabr, 2020 yil
3. Головнин, А. Сравнительный анализ функционирования рынков страхования жизни США и ФРГ / А. Головнин // Страховое дело. – 2007. – № 1(168). – б. 15-31.
4. Song Yuhua, Ye Qina. U.S. Financial Regulatory Reform and Its Challenges // World Economic Research. – 2010. – No 3. – P. 26-31.
5. Niu Bokun. The main tone of the reform of the US insurance regulatory system: integration rather than replacement // China Finance.–2010.–No 1.–P.39-40.
6. Sun He. Research on U.S. Insurance Fund Stock Investment Supervision. BeiJing: BeiJing University, 2017, – P.7-9.
7. Фейгин В. Е. Сектор страхования в британской экономической экономике: исторический фундамент и современное состояние / В. Е. Фейгин // Российский экономический интернет-журнал.2020. № 1.С.1-16.
8. Caporale G.M, Cerrato M, Zhang X. Analysing the determinants of insolvency risk for general insurance fir

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100